

**XX ASRNING SO'NGGI CHORAGIDA INGLIZ VA AFROAMERIKALIK  
YOZUVCHILAR IJODIDA MAGIK REALIZMNING O'ZIGA  
XOSLIGINI NAMOYON BO'LISHI (TONI MORRISON)**

**Shoymuratova Farida**

Samarqand Davlat Chet tillar institut, 2-kurs magistr

*Annotatsiya. Dunyo adabiyotshunosligida chet el adabiyot tarixi, poetikasi va zamonaviy adabiy jarayon bilan bog'liq ilmiy masalalarning hal etilishi, shuningdek, bu borada alohida badiiy metod asosida yaratilgan magik realizm uslubidagi asarlarning o'ziga xosligini o'rganish borasidagi izlanishlar salmoqli o'rinni egallaydi. Biroq, bu masalaning aynan qiyosiy adabiyotshunoslik va ingliz adabiyoti, xususan, bu oqimning yorqin namoyondasi Toni Morrison ijodi misolida deyarlik o'rganilmaganligi hamda masalaga oid ba'zi ilmiy-nazariy izlanishlarning xulosalari umumlashtirilmaganligi mazkur masalaning dolzarbligini belgilaydi. Shu sababli hozirda zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligida, uning uzviy ajralmas qismi bo'lgan xorijiy adabiyotshunoslik jahonda va xususan O'zbekistonda keng e'tirof etilgan Toni Morrisonning magik realizm metodiga mansub matnlarining o'ziga xosligini, uning an'analarni davom ettirilishini magik realizm adabiyoti tarixi sifatida nazariy va tarixiy jihatlardan qiyosiy planda tadqiq etish har tomonlama chuqur o'rganishni talab qiladigan muhim ilmiy masalalardan hisoblanadi.*

**Kalit so'zlar:** Toni Morrison, magik realizm, fantastika, sehr-jodu, etnik adabiyot, mif, afroamerikalik yozuvchilar, sharpa

Jahon adabiyotshunosligi uchun turli metod va uslublarda yaratilgan, alohida e'tibor va yondoshuv talab etadigan asarlar o'rganilishi bilan bog'liq ilmiy masalalarning hal etilishi, shuningdek, bu borada amalga oshirilgan tadqiqotlar orasida magik realizm adabiyotining o'ziga xosligi va uning milliy adabiy jarayondagi o'rni

va roli borasidagi izlanishlar salmoqli o'rinni egallaydi. Biroq bu masalaning aynan ingliz adabiyoti va uning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan Amerika adabiyotda magik realizmning yorqin vakili Toni Morrison ijodi misolida, o'zbek milliy yoki xorijiy adabiyotshunosligida umuman, yoki yengilroq ta'riflasak, yetarli darajada, o'rganilmagan hamda masalaga oid bir qator ilmiy izlanishlarning xulosalari umumlashtirilmagan. Shu sababli hozirda zamonaviy adabiyotshunoslikda magik realizmning tarixiy genezisini, uning yirik namoyondasi bo'lgan T.Morrison ijodi misolida o'rganishning o'ziga xosligini, bu metod davomchilari ijodi bilan qiyosiy planda tadqiq etish har tomonlama chuqur o'rganishni talab qiladigan muhim ilmiy masalalardan hisoblanadi.

XX asr so'nggida magik realizm G'arb badiiy tafakkurining asosiy xususiyatlaridan biriga aylanib AQSh va Buyuk Britaniya ijodkorlari ijodida yangilik sifatida talqin etiladi. Mifologik yo'sindagi badiiy ijod, poetika shakli sifatida u o'zining tub asoslari bilan Lotinamerikasi yozuvchilari talqinidagi badiiy dunyoqarashga juda yaqin keladi. Biroq, mutahassislarning fikrlariga ko'ra g'arbona magik realizm aksariyat hollarda ularga bog'liq bo'lmagan tarzda yuzaga keladi.

Mo'jizaviy voqelikka murojaat Britaniya nasri uchun yangilik emas edi. Bunday tashqari, sehrli ko'zgu orqali reallikni tasvirlash nafaqat magik realizm uslubidagi asarlarga xos edi. Ilgariroq mo'jiza va mistik voqelik mashhur ingliz adiblari Ch.Dikkins hamda M.Spark asarlarida kuzatiladi.

Masalan, jahonga mashhur ingliz hikoyalaridan biri Ch.Dikkinsning "Nasrdagi Rojdestvo qo'shig'i: sharpalar ishtirok etgan bayram hikoyasi" xuddi shu yo'sinda yaratilgan.Unda muallif afsonaviy va hayotiy real unsurlarni "... insonda ezgulik va insonparvarlik urug'ining nish urishini ta'kidlash maqsadida" birlashtiradi. Hikoya syujetini toshbag'ir va xasis Ebineyzer Skrujning xayotida yangi arafasida sodir bo'lgan voqealar tashkil qiladi. Bosh qaxramon yolg'iz va bemehr. U hammadan qochadi, boshqalar ham uni chetlab o'tishadi. U shunchalik xunuk va sovuqki bu xatto uning tashqi qiyofasida aks etadi. Xatto qishning dahshatli sovug'i unga pisand emas, chunki uning o'zida sovuqlik mujassam. Muallif ta'kidlashicha, bunday "Skrujlar"

oramizda yashashadi. Asar g'oyasiga ko'ra bunday tarbiyalanmaydigan odamlarni faqat fantastik usulda qayta takrorlash mumkin. Shu sababli bu jarayonda asosiy rolni Skrujning sobiq hamkasbi Jeykob Marli va yana uchta ruh bajarishadi. Uch ruh bosh qahramonga o'tmish, hozirgi davr va ehtimoliy kelajakni ko'rsatishadi. Ko'rganlari qahramon ongini o'zgartiradi: u mehribon va saxiy kishiga aylanib, quvonch va issiqni sezadi. Ch.Dikkens o'sha paytlarda Britaniyada mashhur bo'lgan rodjestvo qissasi syujetidan foydalanadi, chunki bunday ishonish qiyin bo'lgan hayotiy voqealar yangi yil oqshomida yuz berishi mumkin. Ch. Dikkens poetik dunyoqarashining o'ziga xosligi aynan shundan iborat: u reallikda fantastik unsurlarni, fantastikada reallik belgilarini ko'radi.

Biritaniyalik romannavis yozuvchilar magik realizmga mustaqil o'tishadi. Masalan, ingliz magik realizmining yorqin vakili J.Fulz 1950 yillarda "Kohin" (asar rus tiliga "Mag", "Volxv" tarzida o'girilganlishgi e'tiborga molik), lotinamerikalik mashhur G.G.Markes esa magik realizm namunasi xisoblangan "Yolg'izlikning yuz yili" romanini faqatgina 1967 yilda yozib tugatadi.

Bundan tashqari lotinamerikalik va britaniyalik mualliflarning ijodiy prinsiplari tubdan bir-biridan farqlanadi. Amerikaliklar poydevor sifatida milliy folklorga, xalq hayotiga tayanib, voqelarni chekka qishloqlarda tasvirlashardi. Inglizlar ijodi esa muayyan adabiy an'analarga mustahkam bog'lanib ketgan.

A. Karpenter, G.G. Markes, M.A. Asturias kabi va boshqa lotinamaerikalik ijodkorlarning asarlari shubhasiz magik realizmni Yevropaga va Sharqiy Amerikaga tarqalishiga sabab bo'lgan. Bu holat esa, Lotin Amerikasiga hech bir aloqasi bo'lmagan mualliflariga nisbatan ham "magik realizm" tushunchasining qo'llanishiga sabab bo'ldi.

Yevropalik va amerikalik yozuvchilarning ijodi lotiname-rikaliklarnikidan tubdan farqlanadi. Bu farq magik realizmning fentezi va realizm chegarasida namoyon bo'lishidan iborat. Magik realizm real borliqqa sehr ko'zi bilan qarashdek idrok etiladi.

Yevropalik va amerikalik ijodkorlar ijodida realizmning ma'lum bir mezonlari mavjud edi:

- voqealar bizning dunyomizda sodir bo‘ladi;
- sehr-jodu va magiya qonun va mantiqqa bo‘ysunmaydi;
- magiya va sehrgarlik personajlarni hayratga solmaydi, ko‘pincha ular mo‘jizalarga e‘tibor berishmaydi.

Britaniya magrealistlari orasida kross-kultur deb nomlanuvchi yozuvchilarga alohida e‘tibor qaratish zarur bo‘ladi. Ularning ijodlarini gullab-yashnashi, Britaniya imperiyasining mustamlakachilik siyosatining barham topishi va parokandalikka uchrashi bilan bog‘liq bo‘lsa ehtimol; “ingliz tilidagi milliy adabiyotlarning ta’siri o‘sib borayotganligining sabablari orasida tanqidchilar va tarixchilar siyosiy hamda madaniy hodisalarni ko‘rsatishadi, ular sirasiga Britaniya imperiyasining inqirozi, sobiq mustamlaka koloniyalarida mustaqillikning keng aynglay boshlashgani hamda shuningdek, AQShning jahon siyosatida yetakchilikka intilishlariga nisbatan reaksiya kabilarni ko‘rsatishadi<sup>9</sup>”

XX-XXI asrlar chegarasidagi yirik ingliz yozuvchilaridan biri J.Faulz hisoblanadi. Uning “Kohin” romanida g‘ayritabiiylik kundalik oddiy voqelik pardasi ortiga berkitilgan.

Romani syujeti asosida omadsiz muhabbat va hayotda o‘z o‘rnini topmaslik oqibatida mamlaktadan qochgan ingliz ziyolisi Nikolas Erfe tarixi yotadi. Kichkina yunon orolchasiga qochib boradi va u yerda qandaydir “mag” hayotni azob-uqubatga aylantiradigan, hissiyot va qo‘rquvlar bilan bog‘liq psixologik tajbalar o‘tkazadi.

Yozuvchi favqulodda g‘ayritabiiy vaziyatni va realistik xarakterlarni uyg‘unlashtirishga harakat qiladi. Roman tarixiy va madaniy iqtiboslarga to‘lib toshgan. Ulardan eng ko‘p qo‘llaniladigani Orfiy xaqidagi mif-asotirdir. Bunga hatto bosh qaxramonning “gapiruvchi” familiyasi Erfe-Orfiy ham ko‘rsatib turadi. Qalimgi Yunon mif va asotirlari bilan bog‘liq boshqa syujet va motivlarga ham duch kelamiz. Masalan, asarda mag-jodugar Moris Konchis xuddi Aid kabi harakat qiladi. Uning saltanatiga (matnda villasi) bosh qahramon yo‘lboshlovchi Germes ko‘magida

(ma'bud emas, balki oziq-ovqat ta'minotchisi) tushib qoladi. Va bu "Aid saltanatida" Nikolas og'ir va uqubatli sinovlardan o'tib, oxir-oqibatda muxabbatiga qayta erishadi.

Amerika magik realizmining boshqa farqli jihatlari ham mavjud. Bu metod vositasida ijod qiladigan yozuvchilar nafaqat folklor an'analari bilan bog'lanishadi, Ular uchun amerikaliklar adabiyoti qonunlari ham muhim rol o'ynaydi. Ular sirasiga siyosiy, tarixiy va ijtimoiy hodisalar bilan birga shakllangan AQSh adabiy an'analari kiradi, jumladan: mustamlakachilik, aholining seretnik tarkibi, qullik, puritanizm va "Amerika orzusi"<sup>10</sup>

Amerikalik ijodkorlarning diqqat-markazlarida amerikacha o'ziga xoslik, betakrorlik haqidagi mulohazalar turadi. Ularning ko'plab asarlarining sarlavhasida "Amerika", "amerikalik" va "amerikacha" kabi so'zlar ilgari suriladi (masalan M.Tvenning "Amerikalik nomzod" yoki T.Drayzerning "Amerika fojeasi" asarlarini nomlanishi). Buning zamirida "amerikotsentrizm" deb nom olgan dunyoqarash yotadi – bu tushuncha yevropotsentrizmning amerikaliklarga xos talqini bo'lib, bunda u yangi madaniyatning tayanchi sifatida qaraladi. "Tarixan amerikaliklarning milliy ongi o'z mamlakatlarning kelib chiqishi va taqdiri favqulodda noyob va takrorlanmas degan tushunchaga chuqur ishonadi. Yangi Dunyoda ozodlikni izlagan va unga erishganlardan shakllangan yangi xalq, o'ziga xos missionerlik maqsadlarida yaratilgan go'yo"

Bunday holatning misoli sifatida U.Kennedining romanlar turkumi xizmat qilishi mumkin. Uning romanlarini voqealar sodir bo'lgan joylar birlashtirib turadi – Olbani shahri. Yozuvchi kichkina milliy mikrokosm obrazini yaratadi (yunon tilida "mikros kosmos" – kichik dunyo; inson organizmi va Borliqning parallelizmi haqidagi ta'limot). U alohida an'anaviy mantiqqa emas, alohida o'zgacha bir mantiqqa bo'ysunadiga boshqacha olam.

Xulosa qilinganda, ingliz-amerikaliklar ijodida magik realizm lotinamerikaliklar ta'sirida yuzaga kelmagan. U umumiy belgilardan tashqari o'z xususiyatlariga ham ega.

Ta'kidlash joizki, magrealizm ingliz adiblari ijodidan mustahkam o'rin olib, rivojlandi kitobxonlar hamda yozuvchilar o'rtasida ommalashdi. Bu yo'nalashi nafaqat badiiy so'z san'atida, balki rassomchilik va kinematografiya sohalariga ham keng yoyilgan

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Aznaurova, E.S. Pragmatika xudojestvennogo slova. Tekst. / E.S. Aznaurova. Tashkent: Fan, 1988. - 121 s.
2. Apresyan Yu.D. Pragmaticheskaya informatsiya dlya tolkovogo slovarya Tekst.//Pragmatika i problemy intensionalnosti.M.:In-t yazykoznaniya AN SSSR, 1988. - S. 7-44.
3. Babenko, L.G. Lingvisticheskiy analiz xudojestvennogo teksta. Yekaterinburg: Izd-vo Uralskogo un-ta, 2000. - 533 s.
4. Bakieva G.X. Lingvisticheskie osnovy analiza xudojestvennogo teksta. Avtoref. diss. dokt. Filol.nauk. –T.:UzGUMYa,1993. - 46 s.
5. Barchenkov A. A. Pragmaticheskoe sodержanie teksta i yego peredacha pri perevode // Общие i chastnyye problemy teorii perevoda. Sb. nauchn. tr. – M., 1989.